

BADIIY MATN VA UNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI

Aminova Marjona Hamza qizi

Fan va texnologiyalar universiteti

Tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola badiiy matn va uni tahlil qilish metodologiyasi haqida fikr yuritilgan. Tahlil tiplari va badiiy matni lingvistik sharxlash aspektlari munosabati haqida ma'lumotlar berilgan.

Tayanch so'zlar: badiiy matn, tahlil qilish, metodologiya, g'oyaviy-estetik yo'nalish, obektiv, subektiv, matn lingvistika.

Абстрактный. В данной статье размышляется о художественном тексте и методологии его анализа. Дана информация о взаимосвязи видов анализа и аспектов лингвистической интерпретации художественного текста.

Ключевые слова: художественный текст, анализ, методология, идейно-эстетическое направление, объективное, субъективное, лингвистика текста.

Abstract: This article reflects on the literary text and the methodology of its analysis. Information about the relationship between the types of analysis and the aspects of linguistic interpretation of the literary text is given.

Key words: artistic text, analysis, methodology, ideological-aesthetic direction, objective, subjective, text linguistics.

Insoniyat hayotini kommunikativ faoliyatsiz, ya'ni bir-birlari bilan til orqali o'zaro munosabatsiz tasavvur qilish qiyin. Shaxsning belgisi sifatida uni xarakterlovchi yoshi, jinsi, ma'lumoti, kasbi, ijtimoiy kelib chiqishi xududi, hamda millatidan qat'iy nazar, qanday bo'lmasin, biz doim, biror narsani bilishga va bilib olgan narsalarimizni asrab-avaylashga, yodda saqlab qolishga urinamiz. Boshqacha qilib aytganda til vositasida aktiv kommunikativ (aloqa) faoliyat bilan shug'illanemiz. Kommunikativ faoliyatning ayrim aspektlari yoki ko'rinishlari ko'pincha avtomatik tarzda namoyon bo'lsa, ayrimlari maxsus o'rganish, ta'lim prosessida o'zlashtiriladi. So'z san'atiga o'rgatish, juda ko'p mutaxassislarning sa'i-xarakatlari bilan amalga oshiriladi. Shu jihatdan "Matnning lingvistik tahlili" kursining asosiy maqsadi bo'lg'uvsi filolog-o'qituvchilarni badiiy asarning mohiyatini tushunishga va undagi g'oyaviy-estetik, tarbiyaviy hamda uning o'quvchiga emotsional ta'sirini, asar zamirida yotgan eng muhim voqe'larni anglab olishga qaratilgandir.

Badiiy nutq yozma formada nomoyon bo'ladi. Uning og'zaki ko'rinishi esa (aktyor yoki biron kimsa tomonidan o'qilgani) yozma formaga nisbatan ikkilamchi yoki bevosita xarakterga ega. Bu forma matn o'qiyotgan shaxs bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning o'zgarishi bilan u ham o'zgaradi. Badiiy nutqning birligi yoki boshqacha qilib aytganda mezoni- bu tugal xabar ifodalovchi bir butun, badiiy jixatdan nixoyasiga yetgan asardir. Tildagi mavjud har qanday funksional uslub tomonidan ifoda etilayotgan xabar kabi badiiy asar matni ham nutq aktining birin-ketin keluvchi tanlam majmuasi deb qarash mumkin. Bu esa o'z navbatida bir qator obektiv va subektiv, shaxsga aloqador bo'lgan faktorlar bilan izohlanadi. Tilga olib o'tilgan faktorlarning tasiri ko'proq ikki xil nutq doirasida, yani xar kungi og'zaki va badiiy nutqda namoyon bo'ladi. Bu ikki xil nutqning birinchisi, situatsiya bilan, norasmiyligi bilan

xarakterlansa, ikkinchi g'oyaviy-estetik yo'nalishi va asr xamoxangligi bilan xarakterlanadi. Badiiy ijod- bu borliqni inson tomonidan aloxida olingan maxsulidir.

Tashqi olamdan kirib kelayotgan hamma axborotni biz ma'lum ichki kechinmalar bilan qabul qilamiz va voqealarning qaytalanishi, takrorlanib kelayotganda ular o'rtasida aloqani mustaxkamlaydi, kechinmalarni bir-biriga bog'laydi. Shunday qilib, kishi ongida ichki kechinmalar va ma'lum ma'no tashuvchi axborot o'rtasida bir-biriga mutanosiblik paydo bo'ladi va ichki kechinmalar axborotning manba'iga yoki tashuvchisiga aylanadi. Ijodkor esa, ijod paytida o'zini o'rab turgan dunyoni bilishi va tushuntirishi uchun ichki kechinmalarini o'z dunyoqarashi orqali tahlil qiladi. Badiiy asar, shunday qilib- bu san'atkor, ijodkor tomonidan tanlab olingan borliqning bir qismi bo'lib va bu qismni yozuvchi tomonidan mushoxada etilishidir. Borliqning bir qismi, "uchastkasi" sifatida uning xoxlagan tomoni olinishi mumkin. Uning tasviri badiiy asarni mavzusini tashkil qiladi. Badiiy nutq stilistikasi ya'ni uslubi uchun muallif tomonidan ishlayotgan til vosita va to'qimalarning o'ziga xosligi, individualligini hamda ularni qay yo'sinda namoyon bo'lishi muhimdir. Matnning lingvistikasi uchun esa, matnni tashkil etuvchi kategoriyalar va ularning tarkibi hamda bu kategoriyalarni matn ichidagi o'zaro hamkorligi va ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi, matnning tipologiyasini yaratish, qolaversa, bu tipologiya ichida badiiy matnni o'rnini aniqlash kabi masalalar muximdir. Hozirgi paytda MLT bilan shug'ullanuvchi oqim "Yangi kriticizm (New Criticizm) nomi bilan shuxrat qozongan. Til vositalarini saralash ustidan nazorat qilib borish matn tahlilining aspektlaridan biri. Ana shu aspekt asosida til birliklarini badiiy adabiyot uslubida tanlash imkoniyatlari xam xar xil bo'ladi. Turli til matnlardagi til ifoda vositalarining tanlanishi va qo'llanishidagi potensial xamda amaliy imkoniyatlarni kuzatish tekshirib chiqish tahlilning maqsad va vazifasini belgilaydi. Maqsadi, prinsipi, va qamrov xajmi jixatidan tahlil tiplari xam xar xil bo'ladi:

Xususiy, tematik, va uslubiy, kompleks. Xususiy tahlilda matnning ma'lum bir qismini yoki to'liq matnni, tilning bir jixatiga yoki badiiy tasvir vositalariga yo bo'lmasa obrazlar sistemasiga e'tibor qaratiladi. Kompleks tahlilda tilning barcha soxalariga xos birliklar va ularning konkret qo'llanishi matnning g'oyaviy- tematik mazmuni janri va strukturasi bilan o'zaro bog'liqlikda olib o'rganiladi. Tahlil tiplariga asoslanib ish ko'ruvchi tahlil turlari xam xar xil bo'ladi. Lingvistik tahlil xam turli xil bo'ladi: A. Matnning umumiy mazmunini oydinlashtirishda til ifoda vositalarini tanlash faktorlari va ularning matn tuzilishidagi rolini aniqlash, mazmun-matnning til materiali jixatidan strukturasi belgilovchi yetakchi asos Til ifoda vositalari: so'z, so'z shakllari, so'z birikmalari, gap tiplarining tanlanishi, qo'llanishi va uyushishini tahlil qilish nazarda tushiniladi. Masalan: Alisher Navoiyning "Farxod va Shirin" dostonini o'rganish jarayonida eskirgan so'zlar va so'z shakllariga izox berib boriladi: B. Lingvistik nazariya, til sistiemasi va tarixi faktlariga asoslangan filologik tahlil. Adabiy metod, janr, badiiy-estetik prinsiplar avtor shaxsi va uning nutqiy manerasi va boshqa matn til ifoda vositalarining tarkibi xamda ko'rinishini belgilovchi omillardir. Masalan: G'ofur G'ulom she'riyatida tarixiy so'zlarning qo'llanishi sabablarini izoxlash. Stilistik tahlil-matndagi badiiy tasvir vositalarini izohlash. Tasviriy vositalar har xil uslub va janrda qo'llanilib u umumtilga hamda avtorga tegishli bo'lishi mumkin. Asarda ishtirok etayotgan qahramonning nutq qurilishi tilning leksik tarkibi, uning xarakterini ochishda muhim vosita sanaladi.

Masalan: Uyg'un o'zining "Jontemir" poemasida Jontemir xarakterini chizishda badiiy tasvir vositalaridan ustalik bilan foydalanadi.

"Rang-barang chechaklar to'lg'anib, jozibali kulib boqqandir",

"Na bulut silkitmay oltin par", "Mo'ylov burab, jilmayib
tog'lar (jonlantirish),

"Nozli bulutlar, daydi yellar,

kumush suvlar, shirin qo'shiq"(sifatlash),

"Qirchillama sho'x yigitlarday, olmos kabi yaltirab asta, zuluk kabi so'rib

qonini"(o`xshatish)

"na ko`kning fonari o`chmasdan, na yulduz sayr etib ko`chmasdan..."

Badiiy tahlil-matn tahlilining murakkab turlaridan bo`lib, unda xilma-xil vazifalar bajariladi. Chunki bu tahlildan kuzatiladigan maqsad asarning xususiyatlarini o`rganishdir. Badiiy matnda kishilarning munosabatlar doirasida bir-biri bilan bog`langan kishilar xayotining ma`lum davridagi voqealari tasvirlanadi. Bu voqealarda davrning siyosiy ijtimoiy, madaniy va ahloqiy xayoti o`z aksini topadi.

Matnning adabiy tahlilida quyidagi maslalarga aloxida e`tibor berilishi lozim:

1. Badiiy matn tahlilida tasvirlangan voqelik va shu voqelikka

yozuvchining munosabati aniqlanadi. Masalan: Alisher Navoiyning "Farxod va Shirin" dostonida olijanob fazilatlarini ulug`lash, adolat va xalqparvarlik, do`stlik va qaxramonlik, muxabbat erkinligi va unga sadoqati asarni g`oyaviy mazmunini tashkil qiladi. Asarda Xisrav, Yosumon kabi yovuz kuchlar bilan Farxod, Shirin, Mexinbonular o`rtasidagi kurash ko`rsatiladi. Shoir Farxod, Mexinbonu, Shirinlarning barcha xarakterlariga xayrixolik bildiradi. Shoxni adolatli bo`lishiga undash g`oyasini ilgari suradi. 2. Tahlilda asarning mazmuniga xam shakliga xam berish va mazmunning yetakchi rolini ta`kidlab o`tish zarur. 3. Asar tahlilida obrazlar asarning umumiy mazmuni bilan bog`liq xolda o`rganiladi. 4. Asar syujeti va kompozitsiyasini o`rganish xam adabiy tahlilning asosiy vazifasidir. Badiiy asardagi mavzu, obraz, til, kompozitsiya, muayyan g`oyani ifodalaydi. Mavzu va g`oyaning aktualigi va xalqchiligi, mazmun va shaklning o`zaro mosligi, obrazning tipikligi va haqqoniyliги syujet va kompozitsiyaning pishiqligi, badiiy tilning tasviriyligi va ekspressivligi adabiy tahlil jarayonida aniqlanadi. Matn tahlilida tahlilning yuqoridagi u yoki bu turidan foydalaniladi. Matni sharhlash so`z va so`z shakllari badiiy tasvir vositlarining asar g`oyaviy va estetik mazmunini oshirishdagi roli izoxlanadi. Matni sharhlashda lingvistik aspekt asosiy o`rinni egallaydi. U tradision adabiy tahlilda xam yetakchi sanaladi, chunki u matnning estetik strukturasi va badiiy tasvir vositlarini o`rganishga ko`maklashadi.

Tahlil tiplari va badiiy matni lingvistik sharhlash aspektlari munosabatini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

1. Tahlil lingvistik, stilistik va adabiy bo`ladi, ular bir-biri bilan bog`liq xolda olib boriladi.

2. Badiiy matni lingvistik sharhlashda tahlil aspektlari tahlil, sintez xamda asarning g`oyaviy mazmuni va poetikasini izoxlashga xizmat qiladi. Turli darajada qo`llaniladigan til birliklarini aniqlash va tushuntirish xamda matndagi ekstralingvistik faktorlarini izoxlash tahlilining vazifasi sanaladi. Voqelikning yaxlit bo`lagi so`zlar bilan asar kompozitsiyasining o`zaro ta'sirini aniqlash vazifasi sanaladi. Kritisizm (Practical Criticism) nomi bilan Angliyada mashhurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov M. Bolalarning o`quv maqsadi– ta`limni ilmiy loyihalash omili// Xalq ta`limi. –2005. –№5. –49 b

2. Yusupova SH.J. Ona tili talimi samaradorligini oshirish va ilg`or pedagogik texnologiyalarni joriy etish. Ped. Fan. Nom-di diss. - Toshkent: TPDI, 1998.

3. Abduraxmonova S. Sh. Bo`ljak tarbiyachilarda pedagogik-madaniyatni rivojlantirishning antroposentrizm tamoyili "ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАДҚИҚОТЛАР" № 6-2, 2022. махсус сон ISSN 2181-1717 (E)